
TOSHLOQ TUMANI HOKIMLIGI AXBOROT XIZMATINING RASMIY MUNOSABATI

Kuni-kecha ijtimoiy tarmoqlarning birida «Tushov» uzildimi? Toshloqda chorvalar daydi itlar hujumidan nobud bo'lmogda. Farg'ona viloyati Toshloq tumani Qipchoq qishlog'ida paydo bo'lgan daydi itlar chorvalarni nobud qilmoqda. Aholi bu holatdan sarosimaga tushib qolgan deb nomlangan maqola e'lon qilindi.

Ushbu xolat yuzasidan ishchi guruh tuzilib, o'rganishlar olib borildi. Tuman obodonlashtirish boshqarmasining qarovsiz qolgan hayvonlarni tutish bo'limi, tuman DSENM hamda Davlat veterinariya xizmati xodimlari Ucholish, Qipchoq qishloqlarida bo'lib, aholi bilan suhbat o'tkazdilar. Murojaatda ishtirok etgan fuqarolar bilan bevosita uchrashib, xolat joyida o'rganildi va it ushlash tadbiri o'tkazildi. Tadbirda sirtmoq va to'rlardan foydalanib, 9 bosh qarovsiz qolgan itlar ushlandi.

Shuningdek, mutasaddi idoralar yuqoridagi xolatlarga jiddiy e'tibor qaratib, qishloqlarda tunu kun navbatchiliklar tashkil etib, it ushlash tadbirlarini olib bormoqdalar. Tuman obodonlashtirish boshqarmasining qarovsiz qolgan hayvonlarni tutish bo'limi Ucholish hamda Qipchoq mahallalari aholisiga noma'lum yirtqichlar yo'qligini ma'lum qiladi. Hafta davomida qishloqlarda daydi itlarni tutish tadbirlari davom etadi.

2022-10-18 18:43:55